



# SIRDARYO VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI

## BUYRUG’I

6 may 2024 yil.

167-ICH-son

**Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish to‘g‘risida**

ISO 37001:2016 “Korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarni inobatga olgan holda, Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish, tizimda korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish jarayonlarini tartibga solish maqsadida,

### B U Y U R A M A N :

**1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiining 2023-yil 26-may kunidagi 89-son buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

**2. ISO 37001:2016 “Korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalari ijro uchun qabul qilinsin.**

**3. ISO 37001:2016 “Korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalariga asosan:**

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 1-ilovaga;

ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar 2-ilovaga;

xodimlari uchun korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiyot 3-ilovaga;

korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi tartib 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bosh boshqarma apparati, tuman (shahar) bo‘limlari va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.
5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bosh boshqarma boshlig‘i**



**Sh.Yakubov**